

PROFESSIONAL TA'LIM O'QUVCHILARINING KASBIY EKSTREMAL  
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Mo`mindjanova N.A.

Qo`qon temir yo`l texnikumi

*Annotasiya:* Mazkur tezisda bugungi kunda jamiyatda amalga oshirilayotgan islohatlar talablariga to'la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o'zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi pedagog shaxsni shakllantirishning nazariy asoslari yoritilgan.

**Kalit so'z:** Kasbiy kompetentlik, kompetentlilik, nazariya, pedagogika, metodika, professional ta'lim.

Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy soqlom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'ymoqda. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaqirasini yaratish" vazifasi belgilandi. Kompetentli pedagog -u kim? Uning shakllanish jarayoni qanday kechadi kabi savollar tug'iladi. Shu nuqtai nazardan "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalar mazmun mohiyatini aniqlashimiz muhimdir. Bo'lajak o'quvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Kasbiy kompetentlik tashhisi kasbiy shakllanishning mohiyatli xarakteristikalariga diagnostik, kommunikativlik, boshqaruv va proektiv o'quvlar guruhlarini kiritish lozim. Pedagogning bilish faoliyati ko'p jihatdan o'rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta'siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutadi. Mazkur holda o'z-o'zini tartibga solish xususiyatlari o'z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o'z hatti-harakatini qathiy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini



oshirish tizimini zamonaviy ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqqan holda yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning quyidagilarni nazarda tutuvchi yangi tizimini joriy etish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin: "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida boshqaruv hamda pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish; ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv jarayonini tashkil qilish, boshqaruv va pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish uchun ta'lim dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida doimiy yangilab borish; ishlab chiqarish ta'limi ustalari uchun ularning kasbiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan malaka oshirish shakllarini mustaqil tanlash va o'zlashtirish imkoniyatini yaratish. 2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin: professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va uzluksiz malakasini oshirish jarayonini tashkil etish va uning bosqichlari; qayta tayyorlash va malaka oshirishning maqsad va vazifalari; qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayoni ishtirokchilarining vazifalari. Bugun professional ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning istiqboli, samara va natijasi ish beruvchi va ta'lim muassasasining o'zaro hamkorligiga, ishlab chiqarish va o'quv jarayonining uzviyligi, milliy malaka tizimining muvaffaqiyatli joriy etilishi, mukammal professional standart va sifatli ta'limga bog'liq. Bu tizimning muvaffaqiyatli joriy etilishi yaqin istiqboldagi taraqqiyotimiz jadallashuvini ham belgilaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtolojia. -Toshkent: 2002. -22 b.
2. Ahlidinov R. Sotsialno-Pedagogicheskie osnovi upravleniya kachestvom obshego srednego obrazovaniya. Avtoref.dis...d-ra ped.nauk. -T.: 2002. -44 b.
3. X.Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova: "Kasbiy ta'lim pedagogikasi" Metodik qo'llanma. -T. 2005 y.
4. M.Usmonboeva, G.Anorkulova, G.S.Hamaripxodjaeva "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari" o'quv uslubiy majmua. T. 2015 yil. 14-15-betlar
5. N.A.Muslimov Bo'lajak kasb-ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirish T.,Fan 2004.
6. Ishmuhamedov R, Abduqodirov A, Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. -T.: "Iste'dod", 2008. -180 b.
7. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. -T.: «Fan va texnologiyalar» 2013 -128 b



8.Nizomxonov S.A., Madaminov I. Pedagogning kasbiy faoliyatida axborot kommunikativ kompetentlikni oshirish yo'llari. // Zamonaviy ta'lim» jurnali, 2014, No10.

9.Ismailov Tohirjon Xushnudbek o'g'li; "International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR)" Vol. 5 Issue 4, April -2021, Pages: 181-182181 "Formation Of Student Aesthetic Competition By Teaching The Works Of Russian Classic Composers In Music Culture Classe